

ISLIMIY NAQSHLAR VA ULARNING QO'LLANISH USLUBLARI.

Sa'dullayeva Nigora¹


Ataqulova Diyora Baxriddin qizi²

Xalto'rayeva Bibixon Yakub qizi³

Abstract: *Ushbu maqolada islamiy naqshlar va ularning turlari, naqshlarning hunarmandchilikka qo'shgan hissasi va qaysi shaharlarda keng qo'llanishi haqida qisqacha yoritilgan.*

Key words: *Islamiy naqsh, naqsh, hunarmandchilik, bezak, rassom, olim, naqqosh, o'simliksimon, kurtak, madoxil, turunj.*

Islamiy-o'simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan asosiy naqsh turi hisoblanadi. Naqsh asosini tanob, band, barg, butalar tashkil etadi. Islamiy naqsh bir-biriga uzliksiz ulanib, o'ralib ketadigan chirmoviqsimon, o'simliksimon naqshlarning takrorlanishidan tashkil topadi. Shuning uchun ba'zan ustalar uni o'rama yoki o'simliksimon naqsh deb ham ataydilar. Islamiy naqshlarning xillari ko'p, u qasi shakl bilan to'ldirilsa, naqsh shu shaklning nomi bilan ataladi. Islamiy naqshlarning yuzdan ortiq turi mavjud.



1-rasm. Islamiy naqsh turlari.

Islamiy naqsh hunarmandchilikning ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, miskarlik, zardo'zlik, kulolchilik, gilamchilik, miniatura kabi yo'nalishlarida foydalaniladi. Islamiy naqshlarning hunarmandchilik rivojlangan shaharlar nomlari bilan atalgan xillari bor. Masalan : Isfahoni Islamiy, Arabi Islamiy. Tanob o'simliksimon naqsh asosini tashkil etuvchi chizmadir. Islamiy naqshlarni kompozitsiyasi bo'yicha namoyon, ruta, munabbat, madoxil, turunj, zabjira xillariga bo'lish mumkin. Islamiy naqshlarni yanada jozibali qilish maqsadida naqshlarda qo'shimcha materiallardan

¹ Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti-“Ma'daniy meros ob'ektlarini asrash” kafedrası o'qituvchisi


² Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti talabasi

³ Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti talabasi



foydalanilgan. Xalq ustalaridan S.Maxmudov, J.Hakimov, O.Fayzullayev, M.Usmonov ijodlarida islamiy naqshlarni ko'rish mumkin. Ganchkorlik sohasida Buxoro ganchkorlik maktabi mashhur. Buxoro maktabi ishlari o'yma ganchlarning yirikligi, mayinligi, jozibadorligi va boshqa tomonlari bilan ajralib turadi. Buxoro ganchkorlik maktabining eng yirik namoyondalaridan biri akademik Usta Shirin Murodovdir. Shuningdek, kitob va jurnallarni bezashda ham islamiy naqsh xillari keng qo'llaniladi. Bu soxada grafik I. Ikromovning xizmati katta.

Islimiy duraftor-ikki yo'nalishli ruta islami hoshiya naqsh. Islami duraftor barg, kurtak, gul va boshqa elementlardan tashkil topgan bo'ladi. Islami duraftor yog'och, tosh, kumush, oltin devorga, matoga, va boshqa narsalarga uyib, tiqib, chizib, bo'yab ishlanadi. Islami duraftor xalq amaliy san'atining barcha turlarida keng tarqalgan. Uning tuzilishiga o'xshash lekin ularning yo'nalishlar soniga qarab yakraftor islami, seraftor islami va chorator islami yuritiladi. Islami naqshlar bir tomonga va har ikkala tomonga ulanadigan xillari bor. Islami naqshlarning mehrobli duraftor islami, doxili duraftor va boshqa turlari bor. O'rta Osiyoda me'moriy naqshlarning asosan 3 xildagi yirik guruhi: girih, islamiy va epigrafik turlari keng tarqalgan.



2-rasm. O'rta Osiyoda keng qo'llangan naqsh turlari.

O'zbekiston qadim zamonlardan eng oddiydan tortib, mukammal kompozitsiyalarda tasvirlanadigan turli naqshinkor bezaklar bilan mashhur. 19-20 asrda har bir hududga oid bo'lgan, bir-biridan hajmli kompozitsiyalari va bezaklariga ko'ra farqlanuvchi badiiy maktablar paydo bo'lgan. O'zbekistonda naqshinkor bezaklar ommalashgan asosiy hududlar Farg'ona vodiysi shaharlari, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlari bo'lgan. Islamiy va murakkab handasaviy hisoblangan girihiy naqshlari ko'p bo'lmasada, kompozitsiyalar ularda foydalanilgan naqshlar betakrorligi hamda nihoyatda rang-barangliligi bilan o'ziga maftun etadi. Bu rang baranglikka elementlarning o'ziga xos uyg'unlashuvi, bir naqshning ikkinchisi ustiga yotishi, detallarning mukammal talqin etilishi hisobiga erishiladi. O'zbek hunarmarandchiligida eng ko'p ommalashgan naqsh – bu o'simlik shaklidagi islamiy naqshdir. O'zbekiston naqshinkor bezaklarning yana bir o'ziga xosligi- ranglarning ocharib-to'qlanmasligi, ya'ni faqat keskin farqlanuvchi ranglardan foydalanishidir. Farg'ona vodiysi ustalarining en yoqtirgan ish usuli alohida markaz shakllarini kungara tarzda yorqin qizil va yashil bo'yoqlarda bajarilgan o'simlik nusxa naqshlar bilan bezashdan iborat. O'zbekistonga xos naqshinkor bezaklar nafaqat naqshlarning mohirona tuzilishi va chizilishi, balki asosiy ranglarning yorqinligini qo'shimcha ranglar vositasida kuchaytirish qonuniyatining qat'iy tartib bilan qo'llash orqali erishiladigan ranglarning o'zaro mutanosib uyg'unligi bilan ham o'ziga mutanosib maftun etadi. Yog'och va ganch o'ymakorligida islamiy naqshning islamiy gul, islamiy mehrob, islamiy patnis turlari



ko'p ishlatiladi. Bu islimiy naqshlarni bir-biridan markazdagi asos shakli farqlab turadi: masalan, patnisni eslatuvchi to'rtburchakli, turli turunj shaklli mayda mozaikaga o'xshab ketadigan koshin shakli.



3-rasm. Garih va islimiy naqshlarning birgalikda qo'llanishi.

Islimiy naqsh elementlarining ramziy ma'nolari.

Bodom-baxt, iqbol.

Barg-bahorgi uyg'onish.

Qalampir-har xil yomonliklardan va yomon ko'zdan asrash.

Atirgul- muhabbat va go'zallik.

Ranglarning ramziy ma'nolari.

Yashil-ona tabiat ramzi.

Qizil-g'alaba, xursandchilik, shodlik ramzi.

Zangori- e'tiqod ramzi .

Sariq-muqaddaslik ramzi.

Ajdodlarimiz ranglarning xususiyatlarini yaxshi bilganlar. Ular atrofimizni o'rab turgan tabiat ranglariga shaydo bo'lganlari uchun zangori, lojuvard va yashil ranglarni ko'p ishlatgan. Binalarning koshin va pargin sirlariga, oftob nurida tovlanishini hamda atrofda ranglar bilan uyg'unligini hisobga olib, munosib bo'yoqlar tanlangan. Pargin va koshinlarda, asosan, lojuvard, zangori, yashil, sariq va oq ranglar ishlatilgan.



4-rasm. Masjidlarda islimiy naqshlarning qo'llanishi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bu maqolada milliy merosimiz bo'lgan islimiy naqsh va uning turlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Bu maqola bugungi kun yoshlarining milliy naqshlarimizni ma'no mazmunini tushunib yetishlariga naqqoshlik yo'nalishidagi bilimlarini ortishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marjona, K., & Nigora, S. (2023). BASIC PRINCIPLES ADAPTATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *Science and Innovation*, 2(11), 68-70.
2. Salimov, O. M., Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). Use of Local Building Materials in the Natural Climate of Central Asia. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 8, 129-130.
3. Nigora, S. (2023). STUDY AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF CONSTRUCTIVE SOLUTION OF ARCHITECTURAL ELEMENTS USED IN CULTURAL HERITAGE OBJECTS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 602-605.
4. Dilrabo, K. (2023). PROBLEMS IN THE RECONSTRUCTION OF DECOR ELEMENTS OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 633-637.
5. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, 1(9), 121-125.
6. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(11), 50-54.
7. Nigora, S. (2023). O'ZBEKISTONDA MADANIY MOROS OB'YEKTLarida FOYDALANILGAN ARXITEKTURA Elementlarning KONSTRUKTIV YECHISHINI O'RGANISH VA ILMIY TAHLILI. *JURNAL OF ENGINEERING, MECHANICA VA ZAMONAVIY ARXITEKTURA*, 602-605.
8. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Трёхмерная графика. *Журнал "Интернаука"*, (3 (7)), 25.
9. Жураев, Т. Х., Хамраев, Н. Ш., Ураков, О. Х., Абдуманнонов, М., & Саидова, Г. К. (2020). РЕШЕНИЕ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ПОСТРОЕНИЯ ПЛОСКИХ СОПРЯЖЕНИЙ ГЕОМЕТРИЧЕСКИМ МОДЕЛИРОВАНИЕМ ДЛЯ НАПРАВЛЯЮЩИХ ПОВЕРХНОСТЕЙ РАБОЧИХ ОРГАНОВ. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 346-348).
10. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Резьба по дереву в Узбекистане. *Интернаука*, (2-1), 11-13.
11. Khayitboevich, U. O., & Gulnoza, U. (2023). THE HISTORY OF CERAMIC DECORATIONS APPLIED TO CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, 1(10), 210-215.
12. Khayitboyevich, U. O., & Dilshoda, B. (2023). ENGINEERING CONSERVATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 517-520.
13. Xayitboyevich, U. O. (2023). NUROTA VOHASINING TURAR JOYLARNING KOMPOZITSION VA REJAVIY-TARXIY YECHIMI. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 171-174.



14. Khayitboevich, U. O. (2023). Repair Works Carried Out In The Architectural Monuments Of The City Of Nurota. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(11), 56-61.
 15. Khaitboevich, U. O. (2021). Ancient nurata karizs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 115-120.
 16. Жураев, Т. Х., Волошинов, Д. В., & Ураков, О. Х. (2020). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЛАБОРАТОРИИ ГЕОМЕТРИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В РАЗРАБОТКЕ РАБОЧИХ ОРГАНОВ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 95-97).
1. Manba: O'Zme.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil (Google)
 2. Manba: O'zbekiston Milliy Ensklopediyasi (2000-2005)
 3. Manba: S.Bulatov, A.Muxtorov „Ganchkorlik san'ati”
 4. Manba: Bo'latov.S „O'zbek xalq amaliy bezak san'ati”.

